Stipendiyalar tanloviga hujjatlar qabuli uzaytirildi

“El-yurt umidi” jamg‘armasining xatiga muvofiq onlayn hujjat topshirish tizimiga kirib, registratsiyadan o‘tgan, ammo turli sabablar bilan barcha hujjatlarini yuklay olmagan nomzodlar joriy yilning 27-mart kuni oxiriga qadar hujjatlarining elektron shakllarini tizimga yuklashlariga ruxsat berilganini ma’lum qilamiz.

Eslatib o‘tamiz, “El-yurt umidi” jamg‘armasi amaldagi stipendiyalari tanlovida kirish imtihonlari dasturlari, imtihon (suhbat, test va yozma ish) o‘tkazish tartib-qoidalari jamg‘arma saytining Qo‘llanmalar ruknida e’lon qilinib kelinmoqda.

BARChANGIZGA OMAD TILAYMIZ!